

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDADA CHET-TILI O'QITISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI

*Eshboltayeva Baxtiniso Hamza qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika yo'nalishi 8-P guruh 2-bosqich talabasi*

*Mohinur Qayumova Murodullayevna*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili*

*fani o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)*

*Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagি bolalarga ingliz tilini o'rgatishning foydali jihatlari keltirilgan bo'lib, hozirgi rivojlangan davrda bu til jahon tili sifatida tan olinmoqda. Shunday ekan biz maktabgacha bo'lgan davrdagi bolalarga ingliz tilini mukammal o'rgatmog'imiz lozim hisoblanadi. Bolalarga chet tillarini o'qitishni maktabgacha yoshidan ya'ni bog'cha yoshidan o'rgatishimiz kerak. Shu yoshdagи bolalarda ingliz tilini bilan birgalikda boshqa tillarni o'qish metodikasini yaxshi rivojlantirishimiz zarurdir.

**Kalit so'zlar:** Texnologiya, metod, o'qitish, chet tili ta'limi, bilim, ko'nikma, lug'at.

**Аннотация:** В данной статье представлены полезные аспекты обучения английскому языку детей дошкольного возраста, а в современную эпоху этот язык признан мировым. Поэтому нам необходимо в совершенстве преподавать английский язык детям дошкольного возраста. Мы должны учить детей учить иностранные языки с дошкольного возраста, то есть с детсадовского возраста. У детей этого возраста необходимо развивать методику чтения других языков вместе с английским.

**Ключевые слова:** Технология, метод, обучение, обучение иностранному языку, знания, умения, словарный запас.

**Abstract:** This article presents the useful aspects of teaching English to children of preschool age, and in the modern era, this language is recognized as a world language. Therefore, it is necessary for us to teach English language perfectly to preschool children. We should teach children to teach foreign languages from preschool age, that is, from kindergarten age. In children of this age, it is necessary to develop the methodology of reading other languages together with English.

**Key words:** Technology, method, teaching, foreign language education, knowledge, skills, vocabulary.

**Kirish qisim.** So‘nggi yillarga kelib mamlakatimizda chet tillarni o‘rganishga katta e‘tibor berilmoqda. Chet tillarni o’qitish bolalarning dunyoqarashi, bilimini boyitishi bilan birga jahon standartlari asosida ta‘lim olishlariga ham yordam beradi. Hozirgi kunda maktabgacha ta‘limga etibor qaratish bu davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy jihatdan rivojlantirish demakdir.

2017-2021 yillarda “Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari” to`g`risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinib, maktabgacha ta‘lim tashkilotiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu qarorga muvofiq, ilg`or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta‘lim sifatini oshirish, maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta‘lim –tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, kabi vazifa va maqsadlar keltirilgan. Hozirgi rivojlangan zamonda biz bolalarning ta‘imtarbiyasiga befarq qaray olmaymiz. Chunki bizning yoshlar ham boshqa davlatlarning rivojlangan ta‘lim standartlari asosida dars o‘tilishida ortda qolmasligi kerak.

Shuning uchun ham biz bolalarni yoshlik ya’ni bog’cha yosh davridan har tomonlama takomillashgan shaxs sifatida voyaga yetkazishimiz kerak. Hozirda chet tili maktablar va universitetlarda, balki ko’plab qo’shimcha maktabgacha ta‘lim muassasalarida ham ta‘limning majburiy tarkibiy qismiga aylandi. Olimlarning ta’kidlashicha, kattalarga qaraganda bolalarda eslab qolish qobiliyati ancha tez va samarali bo’lar ekan. Men bølajak pedagog sifatida tilni oson òrgatish uchun bolani majburlab emas, yoshligidan chet tillarini o‘rganishiga qiziqish uyg’otish va uni turli xildagi o‘yin metodlari orqali o‘rgatish kerak deb öylayman. Bunda ham ustozlarning ham ota-onaning roli va ahamiyati katta hisoblanaadi. Bola birgina o‘qituvchining ta‘limi bilan cheklanib qolmasdan ota-ona ham uning ta‘lim-tarbiyasi bilan shug’ullanib, nazorat qilib borsa, bu bolaning ta‘lim olishga bo’lgan qiziqishi va ishtiyoqini oshiradi.

**Asosiy qism.** Bizga ma’lumki maktabgacha ta‘lim tashkiloti-yoshlarimiz ta‘limi va tarbiyasining ilk bosqichi hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya dasturi bolalar kamolotining yuksak darajada o’sishi va uning o‘rganishiga yordam berishi kerak. Ammo bolalar kattalarnikidan farqli ravishda kelajakni, ertani o’ylab o‘rganishmaydi. Ingliz tilidagi dars «shu yerda va aynan hozir» manosida o’tkazilishi kerak. Bolalar chet tilini hikoyalarni tushunish yoki o‘yinlarda g’alaba qozonish orqali osonroq o‘rganadilar. Agarda xohlasalar, bolalar o’zlari ishtirokidagi o‘yinlar orqali o‘rgangan ma’lumotlarini mustahkamlab oladilar. Chet tilini o‘qitishning asosiy

muammosi talabaning yoshi hisoblandi. Ma'lumki, bolalar o'rganish uchun qulayroqdir.

Yaqin vaqtgacha o'qitish metodikasi bolalarga qaratilgan edi. Endilikda ota-onalar chet tilini o'rganishni iloji boricha erta boshlashga intilmoqda. Maktabgacha yoshi, ayniqsa, chet tilini o'rganishni boshlash uchun juda qulaydir. Bu yoshdagি bolalar til hodisalariga nisbatan sezgirligi bilan ajralib turadi, Ular o'zlarining nutq tajribalarini, tilning "sirlarini" tushunishga qiziqishadi. Bolalarga e'tibor bilan ularni qiziqishlarini aniqlovchi testlar, rasmiy testlar har xil savollar bilan aniqlab olishimiz zarur. Chet tilini o'rgatishning yana biro son usullaridan biri kundalikda ishlatadigan narsalarning barchasini inglizcha aytib bolalar ongiga singirish anacha samara beradi deb o'ylayman. Bugungi kunda ingliz tili darslarida qo'llaniladigan usullarni tanlashda juda ko'p erkinlik mavjud.

Ingliz tili o'quv dasturi ham so'z boyligi, ham grammatik tuzilmalarning atrofida tashkil etilgan. Shuning uchun o'qituvchilar odatda so'z boyligini o'rgatish va mashq qilishni talab qilishi zarur hisoblanadi. Lug'at endi qo'shimcha sifatida ko'rib chiqilmaydi va demak, o'qituvchilar so'z boyligining ahamiyatini chuqurroq anglaydilar va ayniqsa so'zlarning grammatik tahlilini o'rgatish bilan shug'ullanishadi. Shunga qaramay, hamma bolalar ham bir xil tezlikda harakat qilmaydilar va o'zlarini ravon ifoda etishda ba'zi bir qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, shuning uchun ingliz tilida gapirish qiyin deb hisoblashadilar. Lug'atni qiyinlashtiradigan yana bir jihat bu ba'zi so'zlarning talaffuzidir. Chunki ingliz tilida so'zlar o'qilganidek yozilmaydi. Ma'lum bo'lishicha, ba'zi talabalar ba'zi so'zlarni talaffuz qilish kabi so'z boyligi bilan bog'liq muammolarga duch kelishlari mumkin, quyidagi usullar o'qituvchi o'quvchilarga yordam berishida ancha samaralidir.

Chet tilini o'rganish, shuningdek, o'rganuvchining yaxshi tushuna olish qobiliyatiga bog'liqdir. Chet tilini o'rgatish mobaynida har bir bolani harakati uchun rag'batlantirib borish talab etiladi. Bolalar tez o'rganishadi, lekin tezda unutishadi. Shuning uchun, nutqni bir necha bor takrorlab, shu mavzuga doir o'yin yoki tarqatmalar orqali bolalarning esida qolishiga yordamlashish mumkin.

K.D.Ushinskiyning ta'limotiga ko'ra, chet tilida so'zlashishni yosh bola kattalarga o'xshab yillar davomida emas, balki bir necha oylarda yaxshiroq o'rganib oladi. Bu olimning yozishicha, chet tilini o'rganish quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi. Birinchi maqsad – til o'rganayotgan xalqning ijodi bilan tanishish; Ikkinchisi esa, mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish; Chunki til o'rganish insonning miya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uni har tomonlama rivojlantirar ekan. Uchinchi maqsad – shu xalqning madaniyati bilan yaqinroq tanishish va ular bilan oson muloqotga kirisha olish; Keyingisi esa, shu xorijiy mamlakat odamlari bilan bemalol o'zlarining tillarida xat yozisha olish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Haqiqatan bu maqsadlarning barchasi ingliz tilini o'rganayotgan va o'rganishni boshlagan o'quvchi hamda bog'chadagi bolalarda bo'lishi zarur deb o'ylayman. Psixologlarning ham fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o`zlashtiradilar. Ayniqsa bolaga tili chiqayotgan vaqtidan boshlab, o'zining ona tili bilan birgalikda chet tili ham o'rgatilsa, o'sha davrda bola bu tilni o'rganishga unchalik qiynamaydi. Chunki inson o'zining tilini mukammal bilib olgach, boshqa tillarni o'rganish ozgina qiyinrod bo'ladi. Ya'ni bolaning ongida o'zining ona tili to'lig' shakllanib olmasdan uni boshqa tillarni ham birgalikda olib borish juda katta samara beradigan usullardan biri hisoblanadi.

Shuningdek bolalarda til o'rganishga bo`lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtinig ko`pligi buning asosiy sabablaridan biridir. Chet tili o'rganuvchilari chet tili ta'limida o'zga bir til, ma'daniyat bilan to'qnash keladilar. Shu sababdan, mashg'ulotlarda aynan o'sha chet tilga xos bo`lgan materiallardan, o'sha madaniyatni yetkazib bera oladigan matn va dabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Til o'rganish albatta yosh davrlariga bog`liq. Bolaning asosan shu bog'cha yoshida olgan bilimlari uning xotirasida qolib ketadi.

Mening fikrimcha, bolalarga mana shunday yo`nalishlarda dars o`tishimiz maqsadga muvofiq bo`lar edi: -qo`shiqlar va she`rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo`lgan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish; -aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog`liq bo`lgan o`yinlar bilan o'rgatish; -multfilmlar orqali o'rgatish ham ancha samara beradigan metod va usullardan hisoblanadi. Bolalar til o`rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada multfilm qahramonlarining xatti-harakatlari orqali ular ishlatayotgan so`zlarni tushunishga intiladi; Bilamizki bolalar qiziquvchan bo`ladi, garchi o'sha ko'rayotgan multfilmni tushunmasada tushunishga harakat qiladilar. Bolalar multfilmni tomosha qilayotganda, ularning harakatlardagi o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Shu sababli, multfilmni samarali ta'lim vositasi sifatida qo'llashimiz mumkin, bu esa bolalarning ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bog'cha yoshida bolalar nafaqat maktab yoshidagi bolalar ham bir xillikdan tez zerikib qoladi. Shuning uchun ularga har doim bir turdag'i usullardan foydalanib dars o`tmaslik kerak.

### **Xulosa.**

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tamanki, farzandlarimiz yetuk kadr bolib yetishlarida avvalambor, maktabgacha talimning o'rni ahamiyatlidir. Biz barkamol avlodni, kelajagi buyuk davlatni barpo qilishni istasak, avvalo yoshlarimizni, bolajonlarimizni yaxshi bilim olishlari uchun ustoz sifatida, ham ota-onasiga sifatida bor kuchimizni sarflashimiz, ularga yaxshi ta'lim berishimiz zarurdir. Ayniqsa, chet tillarini mukammal o'rganishlari va u olgan bilimni chet davlatlarida, siyosiy konfrensiyalarda keng tadbiq qilishida imkoniyat yaratishini hisobga olgan holda,

ular biz bergan bilim va malakalar bilan yorqin kelajakka erishishlari, bu kelajak bilan kelajagi buyuk davlat yaratishda o'z hissalarini qo'shishlari mumkin.

Biz farzandlarimiz talimiga koproq etibor berishimiz, zamonaviy shart-sharoitlar yaratishimiz, yangi-yangi usullar orqali ularning o'rganishlariga ko'maklashishimiz zarur. Chet tillarini o'rganish bolalarga kelajakda yangi imkoniyatlar eshigini ochishi, ular malakali kadr bo'lib yetishishi, butun jamiyat uchun nafi tegadigan shaxs bo'lib kamol topishlari uchun ham ahamiyatlidir. Kichik yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib, dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 dekabrdagi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O`. Xoshimov, I.Yoqubov Ingliz tili o`qitish metodikasi. - Toshkent: 2003. - 270
3. Qayumova, Mohinur Murodaliyevna. "THEORETICAL – METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE". Интернұка 28(2018): 77-79
4. Ergashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 59-61.
5. British Council. (2016) English for Academics 1 and 2nd. British Council.
6. Melikboboyevich, S. U. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING USULLARI. *Journal of new century innovations*, 50(3), 18-21.
7. Melikboboyevich, S. U. (2024). INGLIZ TILINI O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISHNING AHAMIYATI. *Journal of new century innovations*, 50(3), 14-17.
8. SHerzodovna, S. J., & Melikboboyevich, S. U. (2024). MAK TABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA CHET TILI O'QITISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI. *Journal of new century innovations*, 50(3), 22-24.
9. Melikboboyevich, S. U. (2024). PEDAGOGIKA TA'LIM YO'NALISHIDA CHET TILLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI. *Journal of new century innovations*, 50(3), 10-13.
10. Abdimalikovna, M. Y., & Melikboboyevich, S. U. (2024). INGILIZ TILINI ORTA TALIM MAK TABLARIDA OQITISHDA INNOVATION METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YOLLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(3), 76-79.

11. Melikboboyevich, S. U. (2024). CHET TILI FANLARINI O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISHNING INNAVATSION MATODLARIDAN FOYDALANISH. *TADQIQOTLAR. UZ*, 33(2), 161-164.
12. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDА CHET-TILI O'QITISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(1), 23-27.

